

MOTIVATION CRISIS IN THE ERA OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES**Nurullayeva Zulhumor Sidamatovna**

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE

zulxumornurillayeva@gmail.com

Abstract: This article analyzes the impact of artificial intelligence on education and labor processes. The positive aspects of automation, such as increased speed and efficiency, are highlighted alongside its potential negative effects on human inner motivation, creative thinking, and the need to find fulfillment in one's activities. The paper emphasizes the importance of careful and balanced use of AI technologies, adherence to ethical standards, and ensuring harmony with human needs.

Keywords: artificial intelligence, motivation crisis, technostress, cognitive load, education, mental health, automation, ethical standards.

SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA MOTIVATSIYA KRIZISI: IJOBIIY**IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR****Nurullayeva Zulhumor Sidamatovna**

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası Dots.v.b.

zulxumornurillayeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellektning ta'lim va mehnat jarayonlariga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Avtomatlashtirishning tezlik va samaradorlikni oshirishdagi ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, insonning ichki motivatsiyasi, kreativ fikrlashi va faoliyatidan zavq olish ehtiyojiga salbiy ta'siri ham ko'rsatib beriladi. Maqolada SI dan foydalanishda ehtiyotkorlik, axloqiy me'yorlarga amal qilish va inson ehtiyojlariga mos muvozanatni ta'minlash zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, motivatsiya krizisi, texnostress, kognitiv yuk, ta'lim, ruhiy salomatlik, avtomatlashtirish, axloqiy me'yorlar.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние искусственного интеллекта на процессы образования и труда. Подчеркиваются положительные стороны автоматизации, такие как повышение скорости и эффективности деятельности. Вместе с тем рассматриваются и негативные аспекты, в частности воздействие на внутреннюю мотивацию человека, его

креативное мышление и потребность получать удовлетворение от собственной деятельности. Особое внимание уделяется необходимости осторожного и взвешенного использования технологий искусственного интеллекта с соблюдением этических норм и обеспечением баланса, отвечающего человеческим потребностям.

Ключевые слова: искусственный интеллект, кризис мотивации, техностресс, когнитивная нагрузка, образование, психическое здоровье, автоматизация, этические нормы.

Sun'iy intellekt (SI) – bu kompyuter tizimlarining inson aqliy faoliyatiga xos bo'lgan jarayonlarni, ya'ni idrok, mantiqiy tahlil, qaror qabul qilish va o'rganish kabi funksiyalarni taqlid qilish imkoniyatidir. Oddiy dasturlardan farqli ravishda, SI algoritmlari yangi ma'lumotlar asosida o'z faoliyatini yaxshilab boradi va o'zini “moslashtirish” qobiliyatiga ega. Masalan, mashinaviy o'rganish (machine learning) algoritmlari katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, ulardan yashirin qonuniyatlarni topadi va keyingi qarorlarni shu asosda qabul qiladi. Generativ sun'iy intellekt esa mavjud ma'lumotlardan foydalanib, yangicha natijalar – matn, tasvir, ovoz yoki hatto video yaratishga qodir. Bu jarayon neyron tarmoqlarning murakkab matematik hisob-kitoblariga asoslanadi. Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari inson faoliyatining deyarli barcha jabhalariga kirib kelib, ularning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. U nafaqat murakkab hisob-kitoblarni tez bajarish, balki real hayotdagi muammolarni samarali hal etish imkoniyatini ham bermoqda.

Sog'liqni saqlash sohasida SI tibbiyot amaliyotini tubdan o'zgartirmoqda. Masalan, rentgen yoki MRT suratlarini avtomatik tahlil qilish orqali shifokorlarga kasalliklarni ancha erta aniqlash imkonini yaratadi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan dasturlar bemorlarning individual xususiyatlariga qarab davolash rejasini shakllantirishi mumkin. Bu esa shaxsiylashtirilgan tibbiyot konsepsiyasining rivojlanishiga turtki bermoqda. Bundan tashqari, SI asosidagi virtual yordamchilar shifokorlar ishini yengillashtirib, bemorlar bilan tezkor muloqotni ta'minlamoqda.

Transport tizimida ham SI keng qo'llanilmoqda. Avtopilot funksiyasiga ega avtomobillar yo'l harakatini xavfsizroq qilishga xizmat qilmoqda. Logistika sohasida esa yuk tashish yo'llarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va vaqtni tejashda SI texnologiyalarining imkoniyatlari juda yuqori. Kelajakda aqlli transport tizimlari yordamida shaharlar orasidagi transport oqimi samarali nazorat qilinishi, yo'llarda tirbandliklarning oldini olish mumkin bo'lishi kutilmoqda. Faqat uzluksiz energiya manbaai va ijtimoiy tarmoqlarning faoliyati SI ni to'xtovsiz ishlashini ta'minlaydi.

Biznes va iqtisodiyotda sun'iy intellektning roli beqiyosdir. Moliyaviy bozorlarda aksiyalar narxini prognozlash, investitsiya xavfini kamaytirish, marketing jarayonlarini samarali yo'lga qo'yishda SI dasturlari keng qo'llanmoqda. Mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali kompaniyalar ularning ehtiyojlariga mos mahsulot va xizmatlarni taklif qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bundan tashqari, mijozlarga xizmat ko'rsatishda chatbotlar va virtual yordamchilar doimiy ishlash qobiliyati bilan biznes jarayonlarida inson mehnatini sezilarli darajada yengillashtirmoqda.

Adliya tizimida esa SI hujjatlarni avtomatik ravishda tekshirish, yirik ma'lumot bazalaridan kerakli huquqiy hujjatlarni tezkor topish imkonini bermoqda. Shuningdek, ayrim mamlakatlarda sud qarorlarini tahlil qilish, ularning mantiqiy izchilligini tekshirishda ham SI vositalaridan foydalanilmoqda. Bu esa korrupsiya xavfini kamaytirishga va adolatli qarorlar qabul qilishga xizmat qilmoqda.

Madaniyat va san'at sohalarida ham sun'iy intellekt yangicha imkoniyatlarni ochib bermoqda. Masalan, SI yordamida mashhur bastakorlar uslubida yangi musiqiy asarlar yaratish mumkin. San'at asarlarini tiklashda ham SI katta yordam bermoqda – u yo'qolgan yoki zararlangan qismlarni qayta tiklashda an'anaviy usullardan samaraliroq natija bermoqda. Kino sanoatida esa maxsus effektlarni yaratishda, tarixiy shaxslarning ovoz va qiyofasini jonlantirishda sun'iy intellektdan keng qo'llanilmoqda.

Ta'lim tizimiga SI 2000-yillarning boshidan boshlab kirib keldi. Avvaliga bu texnologiyalar onlayn ta'lim platformalarida testlarni avtomatlashtirish va elektron baholash orqali ko'rinish bergan bo'lsa, keyinchalik individual o'quv dasturlari yaratish, til o'rganishda virtual yordamchilarni qo'llash kabi kengroq imkoniyatlarni taqdim eta boshladi.

2020-yildan keyin, xususan COVID-19 pandemiyasi davrida, masofaviy ta'lim keng yoyilgach, SI vositalari darslarni interaktiv qilish, talabalarning bilim darajasini real vaqt rejimida kuzatish va ularning qiyinchiliklarini aniqlashda muhim vositaga aylandi. Hozirgi kunda esa ChatGPT, Grammarly, Duolingo Max kabi vositalar o'quv jarayonini sezilarli darajada shaxsiylashtirishga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda generativ sun'iy intellekt (GenAI – matn, rasm va boshqa kontentlarni avtomatik yaratishga qodir tizimlar) ish va ta'lim jarayonlarini keskin o'zgartirdi. Bu vositalar kundalik vazifalarni tezroq va samaraliroq qilishga yordam beradi, shu bilan birga insonning ishlash tartibi va o'rganish uslubiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, SI yordamida vazifalar yuqori sifatda va kamroq vaqt ichida bajarilmoqda; boshqa tomondan esa bu o'zgarishlar odamlarning ishga bo'lgan ichki qiziqishi va maqsad sezgisini o'zgartirishi mumkin.

Ichki motivatsiya insonning o'z faoliyatidan ichki mamnuniyat olishi, o'z faoliyati davomidan va yakunidan qoniqish his qilishni ifodalaydiga muhim psixologik ko'rsatkichdir. Ichki motivatsiya uchta asosiy ehtiyojga bog'liq: avtonomiya (erkin qaror qabul qilish), kompetentsiya (qobiliyatini namoyon etish) va aloqadorlik (boshqalar bilan bog'lanish). SI vazifalarni bajarilishini soddalashtirganda yoki avtomatlashtirganda, ba'zida insonlarning o'zi muammoni hal qilishdan oladigan zavqini kamayishi, ishining mazmuni susayishi va zerikish hissi paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotlar (turli onlayn tadqiqotlar jamlanmasi, jami qatnashchilar soni taxminan 3,500 atrofida) shuni ko'rsatdiki: SI bilan birgalikda ishlash dastlab vazifa samaradorligini oshiradi, lekin keyingi mustaqil vazifalarda ichki motivatsiya va e'tibor kamayishi mumkin. Bundan tashqari, SI va inson o'rtasidagi ish ketma-ketligi (masalan, avval birgalikda ishlash, so'ng mustaqil ishlash) bu ta'sirlarni kuchaytirishi yoki kamaytirishi aniqlangan[1].

Shu bois, SI dan foydalanilganda faqat texnik samaradorlikni emas, balki insonning ichki motivatsiyasini ham hisobga olish zarur. Bu esa ish va ta'limga ijodkorlik jarayoni deb qarash, insonning bu jarayonga ishtiyoqi, undan oladigan zavqini kamaytiradigan jihatlarni qayta ko'rib chiqish zaruratini tug'diradi.

Asosiy qism.

Sun'iy intellekt (SI) avtomatlashtirilgan vazifalarni tez va samarali bajarishi insonning o'z faoliyatidan qoniqish olish ehtiyojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muammoni mustaqil hal qilish, kreativ fikrlash yoki muvozanatli qaror qabul qilish kabi faoliyatlardan olinadigan zavq kamayishi natijasida shaxsning "kompetentsiya" va "avtonomiya" hissi susayadi. Bu esa inson faoliyatining mazmunini yo'qotishiga va zerikish hissining ortishiga olib keladi. Shu bois, SI imkoniyatlari bilan inson ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash dolzarb masalaga aylanmoqda[2].

SI tizimlari bilan ishlashda yangi interfeyslar, algoritmlar va texnologiyalarni o'zlashtirish zarurati tug'iladi. Bu jarayon ko'pincha kognitiv charchoqqa olib kelib, insonning diqqatini susaytiradi va psixologik bosimni kuchaytiradi. Ayniqsa, uzoq vaqt chatbotlar, avtomatlashtirilgan dasturlar bilan ishlash shaxsda "texnologik toliqish" holatini keltirib chiqaradi. "The Psychological Effects of AI-Based Learning on Student Motivation, Anxiety, and Cognitive Load" nomli tadqiqotda ham SI-ta'lim uslublari talabalarning motivatsiyasi, tashvish darajasi va kognitiv yukiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan[3].

Bundan tashqari SI lardan tiyiqsiz foydalanish oqibatida insonlarda texnostress va nazorat borasida ham muammolarni yuzaga keltirmoqda. SI vositalarining ish va ta'lim jarayonlariga joriy etilishi inson faoliyatida yangi turdagi stress "texnostress"ni keltirib chiqarmoqda. Avtomatlashtirilgan baholash, doimiy monitoring, algoritmik nazorat va kuchaygan raqobat muhitida inson o'zini bosim ostida his qiladi. SI dan faol foydalanish inson ruhiy salomatligiga ikki yo'nalishda ta'sir qiladi: bir tomondan samaradorlikni oshirsa, boshqa tomondan xavotir va depressiv holatlarning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Shu bilan birgalikda bizni xavotirga soladigan yana bir jihat ya'ni yoshlar orasida SI vositalariga qaramlik tobora ortib borayotganlidir. Ular SI ni "do'st", "maslahatchi" yoki "o'qituvchi" sifatida qabul qilmoqda. Bu esa qisqa muddatli qulayliklar bilan bir qatorda yolg'izlik hissini kuchaytirishi, real ijtimoiy munosabatlarni cheklashi mumkin.

Bunday xavflarga qaramay, SI imkoniyatlari butunlay inkor etib bo'lmaydi. Aksincha, u zamonaviy jamiyatda inson faoliyatini qo'llab-quvvatlash va turmush tarzini yengillashtirish jihatlarini uyg'unlashtirish kerak, Avvalo, SI tezlik va samaradorlikni oshirish orqali murakkab vazifalarni qisqa muddat ichida bajarish imkonini beradi. Masalan, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, statistik ko'rsatkichlarni qayta ishlash yoki qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirishda inson mehnatini bir necha barobarga yengillashtiradi. Bu esa ilmiy izlanishlardan tortib biznes jarayonlarigacha bo'lgan ko'plab sohalarda yangi yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi[4].

Ikkinchidan, SI ta'lim sohasida o'quv jarayonlarini shaxsiylashtirish va individual yondashuvni ta'minlashda muhim vositaga aylanmoqda. Talabalarga moslashtirilgan topshiriqlar, o'qituvchilarga esa talabalarning o'zlashtirish darajasi bo'yicha aniq tahlillar berilishi ta'lim samaradorligini oshirmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham SI texnologiyalari onlayn kurslar, virtual yordamchilar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari orqali o'quv jarayonini sezilarli darajada takomillashtirishi qayd etilgan[5].

Uchinchidan, SI sog'liqni saqlash sohasida ham ijobiy imkoniyatlarni ochmoqda. Masalan, ruhiy salomatlik bo'yicha xizmatlar cheklangan hududlarda SI asosidagi chatbotlar dastlabki maslahat beruvchi vosita sifatida keng qo'llash mumkin. Shu jihatdan, SI insonning hissiy va psixologik farovonligini qo'llab-quvvatlashda muhim yordamchi rol o'ynashi mumkin. Shuningdek, SI nogironligi bor shaxslar uchun kommunikatsion yordam ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Nutqni tanish, matnni ovozga aylantirish, yuz ifodalarini tahlil qilish kabi texnologiyalar insonlarning jamiyatga integratsiyalashuvini osonlashtiradi, ularning ta'lim va mehnat bozorida faol qatnashish imkoniyatini kengaytiradi.

Demak, SI texnologiyalarining imkoniyatlari va xavflari bir-biriga zid emas, balki o'zaro muvozanatda baholanishi lozim. Masalan, SI ni to'liq cheklash yoki cheksiz darajada joriy etishda emas, balki undan foydalanishda ehtiyotkorlik bilan yondashish, axloqiy me'yorlarni saqlash va inson ehtiyojlariga mos keladigan tarzda integratsiya qilishda namoyon bo'ladi. Ana shundagina SI inson faoliyatiga salbiy emas, balki ijobiy va barqaror ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa

Sun'iy intellekt bugungi kunda inson faoliyatining deyarli barcha jabhalariga kirib bordi. Uning tezlik, samaradorlik, individualizatsiya va inklyuziv imkoniyatlar kabi afzalliklari shubhasizdir. Biroq SI dan haddan tashqari foydalanish insonning ichki motivatsiyasi susayishi, tanqidiy fikrlash qobiliyatining pasayishi, ruhiy bosim va qaramlik kabi salbiy oqibatlarini yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun masala SI ni cheklash yoki cheksiz darajada joriy etishda emas, balki undan oqilona, ehtiyotkorlik bilan axloqiy me'yorlarga amal qilgan holda foydalanishda namoyon bo'ladi. SI inson faoliyatiga integratsiya qilinayotganda inson ehtiyojlarini, psixologik holatini va ijtimoiy qadriyatlarini hisobga olish, uning ijobiy imkoniyatlarini kuchaytirish va salbiy oqibatlarini kamaytirish barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralishi lozim.

List of references:

1. Wu, S., Liu, Y., Ruan, M., Chen, S., & Xie, X.-Y. (2025). Human-generative AI collaboration enhances task performance but undermines human's intrinsic motivation. *Scientific Reports*, 15(15105).
2. Negoita, D. O., & Popescu, M. A. M. (2023). The use of artificial intelligence in education. In *Proceedings of the 11th International Conference of Management and Industrial Engineering (Vol. 11)*. National University of Science and Technology POLITEHNICA Bucharest.
3. The CRSSS Journal. (2023). The psychological effects of AI-based learning on student motivation, anxiety, and cognitive load. *The Canadian Research Society of Social Sciences*, 12(3), 45–59.
4. Popescu, M. A. M., & Negoita, D. O. (2023). The use of artificial intelligence in education. In *Proceedings of the 11th International Conference of Management and Industrial Engineering (Vol. 11)*.
5. Mamatova SH. (2023) The role of AI in Teaching: Advantages, Disadvantages, and Future Implications. (2023). *Eurasian Scientific Herald*, 24, 8-12.
6. Jalilova Shohida Ravshan Qizi. (2025). Sun'iy intellekt asosida ta'lim tizimini innovatsiyalash va uning samaradorligini yuksaltirish. *Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali*, 3(1), 1011–1017.
7. Qodirov U., Qarshiev M. Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishning o'ziga xos jihatlari //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 2021. – №. 4 (101). – S. 3-8.
8. Makhmudova, D. M. (2023). EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(1), 177-180.
9. Махмудова, Д. М. (2022, November). СПОСОБЫ ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧТЕНИЕМ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 3, pp. 96-101).

10. Maxmudova, D., & Raxmanova, X. (2022). РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. Science and innovation, 1(B7), 1213-1217.
11. Makhmudova, D. M., & Sultanova, Z. (2023, September). METHODS USED IN THE MORNING RECEPTION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. In "INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" "SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 4, pp. 8-12).
12. Makhmudova, D. M. (2023, September). ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF MODERN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. In "INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" "SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 3, pp. 53-57).